



AIFU

Ikki maqol misolida maqollardagi obrazlar tahlili

Komiljon Karimjon o'g'li Djurayev

Talaba

O'zbekiston Miilliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: djurayev0609komiljon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz G'arb va Sharqda, xususan ingliz va o'zbek xalqlarida mavjud bo'lgan va tenglikni ifodalaydigan ikki maqolga asos qilib olingan obrazlarni tahlil qilish orqali mazkur xalqlarning O'rta asrlardagi ijtimoiy va siyosiy qarashlarini tushunishga urinib ko'rdik.

Kalit so'zlar: mushuk, qiro, tenglik, O'rta asrlar, Yevropa, Sharq, G'arb

Kirish

Insoniyat tomonidan yaratilgan eng ajoyib va noyob ixtiro bu maqollardir. Chunki bir nechta so'z bilan ifodalanadigan ma'no asrlar davomida o'z dolzarbligini yo'qotmay, hech qanday majburiy singdirilishlarsiz yashab kelishini insonlar yaratgan boshqa ixtirolarda ko'ra olmaymiz. "Til, falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo'lgan bir janridir."¹ To'g'ri, vaqt o'tishi bilan, ma'lum sharoitda ba'zi bir maqollar urfdan qolishi mumkindir lekin umumiyl olib qaraganimizda ham maqollar foiz ko'satkichlari bilan har qanday qadimiy bitik yoki qo'lyozmalardan ko'ra uzoqroq yashaydi. Buning asosiy sababi esa, shu ixchamgina mo'jiza butun boshli xalqning o'zligini, ma'naviyati-yu madaniyatini, milliy qadriyatlarini ifodalaydi. Xususan, maqollarda foydalilanigan ramzlar ham o'sha xalqning ijtimoiy hayotida ma'lum darajada o'rinn tutganligi aniq va ravshandir.

Asosiy qism

Maqollarda tanlangan ramzlarni o'rganish orqali ham tarixning ma'lum bir qismida xalqlarning ichki kechinmalari, turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy va hattoki siyosiy qarashlarini qisman bo'lsada o'rganish mumkin. Jumladan, G'arb va Sharq maqollarida tanlangan ramzlar va obrazlar mazkur mintaqalarning tarixiy qarashlari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Masalan, ingliz xalqidagi "A cat may look at a king" maqolini olaylik. "wordhistories.net" sayti maqolni quyidagicha izohlaydi:

"The phrase a cat may look at a king means even a person of low status or importance has rights."²

Ya'ni: "Mushuk qiroga qarashi mumkin iborasi quyi darajadagi yoki muhimlikdagi shaxsda ham huquqlar mavjudligini anglatadi." Ba'zi o'rirlarda esa "may" modal fe'li o'rniga "can" modal fe'li qo'llaniladi va "Mushuk qiroga qaray oladi" degan ma'noni ifodalaydi. Ko'rini turibdiki, maqol gumanitar xususiyatga

¹ Mirzayev, T – O'zbek xalq maqollari. Sharq. 2005

² www.wordhistories.net

ega bo'lib, inson fikri u qaysi tabaqa vakili bo'lishidan qat'iy nazar muhim ekanligini va barcha aslida teng huquqli hisoblanishini anglatadi. Maqolni dunyoga mashhur bo'lishiga esa Louis Kerol sababchi bo'ladi. Aynan uning "Alisa mo'jizalar mamlakatida" asaridagi "cheshir mushugi" va Alisa tomonidan unga nisbatan mazkur maqolning qo'llanilishi "A cat may look at a king"ni mashhur qilib yubordi.

"Don't be impertinent," said the King, "and don't look at me like that!" He got behind Alice as he spoke.

"A cat may look at a king," said Alice. "I've read that in some book, but I don't remember where."¹

Xo'sh, maqoldagi "qirol" obrazi tushunarli, u jamiyatdagi eng nufuzli shaxsni anglatadi. Lekin quyi tabaqa uchun nega aynan "mushuk" timsoli tanlangan? Bu masalani anglash uchun maqol paydo bo'lgan davrni o'rganish zarur bo'ladi.

Aslini olganda, yuqoridagi maqol o'rta asrlarga tegishli bo'lib, birinchi marotaba Jon Heydvud tomonidan 1546-yil chop etilgan "Dialogue of proverbs" asarida keltiriladi.

And also on my maydes he is ever tooting.

Can yee judge a man, (quoth I), by this looking?

What, a cat may looke on a King, yee know.

My cats leering looke, (quoth she), at first show,

Shewth me, that my cat goeth a catter wawing.²

Ya'ni mazkur maqol o'rta asrlarga tegishlidir. O'rta asrlar Yevropasi qudratli cherkov ta'sirida bo'lib, inkivizitsiya avjiga chiqqan va har qanday noodatiy harakat jodugarlik sifatida e'lon qilinib, "jodugarlar" ayovsiz jazolanardi. Xuddi shu davrda odamlar hayotida muhim o'r'in tutgan mushuklarni Cherkov "iblisga aloqador" deb topdi va mushuklar goh o'tda kuydurildi, goh minoradan tashlandi. Bu esa ularni jamiyatda nafratga loyiq jonivorlarga aylanishiga sabab bo'ldi. Shu davrda yaralgan "A cat may look at a king" maqolidagi mushuk obrazi quyi tabaqani ifodalashda tanlanganligi ayni shundandir. Maqolning nemischa variantida ham (Sieht doch die Katze den Kaiser an – Mushuk imperatorga qaray oladi), italiyancha variantida ham (Un gatto può ben guardare un re – Mushuk hatto qiroqla ham qaray oladi) mushuk obrazidan ayni maqsadda foydalanilgan bo'lsa, fransuzlar (Un chien regarde bien un évêque – It yepiskopga qaray oladi) va ispanlarda (Un perro puede mirar al rey – It qiroqla qaray oladi) mushuk o'rniga itdan foydalaniladi. Bu ham o'rta asrlarda itdan asosan ov va qo'riqlov maqsadida foydalanilganligi ya'ni xizmatkor sifatida qaralganligidan dalolat beradi. Umuman olganda, Yevropada tenglikni ifodalash uchun mushuk va it obrazlaridan foydalanilganligi mazkur mintaqada ancha asrlar oldin ham demokratiya va gumanizm g'oyalari mavjudligini, O'rta asrlarda mazkur g'oyalari alohida bo'rtib chiqqanligini va bu orqali Cherkovga qarshi ayovsiz kurash olib borilganligini anglash mumkin. G'arbdan farqli ravishda uzbek xalqida tenglik haqida gap ketganda ko'proq yoshlik va qarilik o'zaro solishtiriladi. Masalan:

"Aql yoshda emas boshda." yoki

"Ko'p qarining ichida,

Bir bola dono bo'lur.

Ko'p bolaning ichida,

Bir qari bola bo'lur." maqollarida ham tenglik masalasi ko'tarilgan bo'lib, Yevropadan farqli ravishda islom ta'limoti nasl-nasabidan qat'iy nazar odam ajratishni keskin qoralagan. Zero, Abu Hurayra roziyallohu anhudan Muslim, Ibn

¹ Carroll, Lewis – Alice's adventures in wonderland. Chicago. Illinois. 1998

² Heywood, John – The proverbs of John Heywood. London. George Bell and sons, York Street, Covent Garden. 1874

Moja, Ahmad, Ibn Hibbon rivoyat qiladilarki, Rasululloh (s.a.v) shunday deganlar: "Alloh sizlarning ko'rinishingizga ham, boyliklaringizga ham qaramaydi, qalbingizga va amalingizga qaraydi."¹ Biroq islomgacha bo'lgan davrda turkiy qavmlar hayotida oqsaqollar eng muhim shaxslardan hisoblanishgan. Oqsaqollar kengashi qabilalar orasida nufuzga ega bo'lib, muhim qarorlarni qabul qilishga boshchilik qilishgan. Kattalarga bo'lgan hurmatning kuchliligi asrlar davomida ijtimoiy-siyosiy hayotda rol o'ynab kelganligi shubhasiz. Xususan, Buxoro xonligi tarixida Abdullaxon II amalda davlatni boshqarsada, rasmiy xonlar oiladagi yoshi ulug'lar, ya'ni uning amakisi Pirmuhammad va otasi Iskandarxonlar bo'lishgan. Bugungacha bunday hurmat saqlanib qolgan, ammo Islom kirib kelgandan so'ng insonning yoshidan ham ko'ra salohiyatiga ko'proq e'tibor berila boshlandi. Shuning uchun ham qadimdan yosh bo'lishiga qaramay ma'sul vazifa yuklangan holatlar tariximizda ko'p uchraydi. Yosh Ibn Sinoning Samoniylar saroyida tutgan o'rni bunga yaqqol misoldir. Turkiy xalqlarda shakllangan kattaga hurmat va yosh ulug'ligi komillikka eltishi haqidagi g'oya Islom kirib kelgandan so'ng, shariatimizdagi insonni tabaqaga ajratmaslik g'oyasi bilan to'qnashib, yuqoridaqiday maqollar dunyoga keldi. Ya'nikim, qarilik donolik belgisi ammo yoshlar orasida ham qariyalarga ibrat bo'la oladigan holatlar mavjuddir.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Yevropadagi O'rta asrlarga tegishli tenglik haqidagi maqollarda demokratik g'oyalar ufurib turadi. Barcha narsa inson uchun tamoyili, har kim ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar o'z fikriga ega degan qarashlar jamiyatdagi tabaqalar orasidagi kurashlar orqali yillar davomida sayqallanib kelgan bo'lsa, bizning tariximizda Islom dini orqali gumanitar g'oyalar shariat qonun-qoidalari nazoratida singdirilib borildi. Yuqorida tilga olingan G'arb va Sharq maqollaridan ma'lum bo'ladiki, tenglik g'oyasi ikki mintaqada ikki xil yo'l bilan rivojlandi va Sharqdan farqli ravishda G'arbda keskinlik sezilib turadi.

210

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Mirzayev, T – O'zbek xalq maqollari. Sharq. 2005
2. Carroll, Lewis – Alice's adventures in wonderland. Chicago. Illinois. 1998
3. Heywood, John – The proverbs of John Heywood. London. George Bell and sons, York Street, Covent Garden. 1874
4. www.wordhistories.net
5. www.muxlis.uz
6. Najmiddinova, M. R., & Jalolova, S. M. (2021). CONTRASTIVE STUDY OF ENGLISH AND UZBEK PUNCTUATION RULES. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(06), 1-5.
7. BALANCES, O. S. W. O. C. ROOTABLE LAYER IN EXPERIMENTAL PRODUCTION SECTIONS. *Ozatboy Bazarovich Imamnazarov, Tokhirjon Olimjonovich Qosimov, Makhammadali Rustamjonovich Abdullaev ISSN*, 2349-0721.
8. IMAMNAZAROV, O. B., QOSIMOV, T. O., & ABDULLAEV, M. R. (2020). Balances Of Soil Waters Of Cotton Rootable Layer In Experimental Production Sections. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 7(05), 318-321.
9. Jalolova, S. M., Otakulov, N. B., Urmonova, N. M., & Nazarova, D. O. (2022). MODERN METHODS AND TECHNOLOGIES IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(4).
10. Odilov, B., & Karimov, N. (2022). COVERAGE OF ECONOMIC AND CULTURAL TRADITIONS IN THE YEARS OF INDEPENDENCE IN ETHNOLOGICAL RESEARCH (ON THE EXAMPLE OF THE FERGANA VALLEY). *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(3).
11. Имамназаров, О. Б. (1993). Регулирование мелиоративного режима при близком залегании слабоминерализованных грунтовых вод.

¹ www.muxlis.uz

12. AGZAMOVA, D. B. (2018). COGNITIVE ANALYSIS OF METAPHORIC PHRASES OF THE CONCEPT "MEMORY" IN THE ENGLISH AND UZBEK BELLES-LETTRES TEXTS. *Иностранные языки в Узбекистане*, (2), 94-100.
13. Odilov, B., & Karimov, N. Archaeological Research is an Important Source in the Study of Traditional Economic Activities of the Uzbek People (On the Example of Some Researchers of the Twentieth Century).
14. Makhammadovna, M. F., & Agzamova, D. B. (2021). Psycholinguistic studies of pre-wedding and wedding traditions (on the basis of English and Uzbek phraseological units). *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7).
15. Shodmonov, A. (2022). Coverage of titles in Central Asian Hellenistic Sources. *Eurasian Journal of History, Geography and Economics*, 11, 24-26.
16. Abdullaeva, M., Jalolova, S., Kengboyeva, M., & Davlatova, K. (2021). Universal Human Values as Axiological Values. *REVISTA GEINTEC-GESTAO INOVACAO E TECNOLOGIAS*, 11(2), 802-816.
17. Davlatova, K., & Nematov, O. (2021, November). Traditional jeweleries and decorations. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 26-28).
18. Shodmonov, A. A. (2021). THE FORMATION OF PRIMITIVE CONSCIOUSNESS AND THE PROCESSES BY WHICH HUMANS ADAPT TO NATURE. *Scientific progress*, 2(6), 1571-1574.